OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O’TKAZILADIGAN SPORT MUSOBAQALARINING O‘RNI.

To‘rayev Rifat Tuyg‘un o‘g‘li
Samarqand davlat pedagodika instituti magistranti.
Email: rifatturayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta’lim muassasalarida talabalar sport musobaqalarini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari, yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi hamda jismoniy salomatligini mustahkamlashdagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Respublika Oliy ta’lim muassasalarida ommaviy sportni rivojlantirish va talabalar ligalarini tizimli yo‘lga qo‘yish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, talabalar ligasi, ommaviy sport, sog‘lom turmush tarzi, gipodinamiya, ijtimoiy integratsiya, pedagogik nazorat.

Dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi va o‘quv yuklamalarining ortishi talaba-yoshlar o‘rtasida gipodinamiya hamda surunkali charchoq holatlarini keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishda Oliy ta’lim muassasalari doirasida va respublika miqyosida o‘tkaziladigan talabalar sport musobaqalari eng samarali ijtimoiy-pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning jismoniy faolligini oshirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va musobaqalar orqali sog‘lom raqobat hamda jamoaviylik ko‘nikmalarini shakllantirish modelini asoslab berish.

Asosiy qism va tahlil. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar sport musobaqalari (fakultetlararo birinchiliklar, rektor kubogi, "Talabalar ligasi" va Universiada bosqichlari) shunchaki sport tadbiri bo‘lib qolmay, murakkab pedagogik va tarbiyaviy jarayondir. Bizning tahlillarimizga ko‘ra, tizimli o‘tkaziladigan musobaqalar talabalar hayotida quyidagi funksional vazifalarni bajaradi:

Jismoniy va funksional tayyorgarlik: Doimiy musobaqa jarayonlari talabalarning yurak-qon tomir, nafas olish tizimini yaxshilaydi, jismoniy chidamlilik va ish qobiliyatini oshiradi.

Ijtimoiy-psixologik integratsiya: Musobaqalar yoshlarda jamoada ishlash, o‘zaro yordam, strategik fikrlash va qiyinchiliklarni birgalikda yengish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu, ayniqsa, viloyatlardan kelgan va 1-kursda o‘qiyotgan talabalarning yangi ijtimoiy muhitga "adaptatsiya" (moslashish) jarayonini tezlashtiradi

.Psixologik immunitet va stress menejmenti: Intensiv aqliy mehnat (sessiyalar, reytinglar, ilmiy izlanishlar) davrida sport musobaqalari talabalar uchun emotsional jihatdan bo‘shashish (razryadka) va depressiv holatlarning oldini olish omilidir.

Bugungi kunda respublikamiz Oliy ta’lim muassasalarida musobaqalarni tashkil etishda yangicha yondashuvlar talabalar klublarini mustaqil boshqaruv shakliga o‘tkazish, musobaqalarni raqamlashtirish (elektron reyting tizimlari) va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tajribasi ommalashmoqda.

Xulosa va takliflar. Respublika oliy ta’lim tizimida talabalar sport musobaqalarining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq

Oliy ta’lim muassasalarida darsdan tashqari vaqtlarda bepul sport to‘garaklari va mini-turnirlar tarmog‘ini kengaytirish;

Musobaqalarni tashkil etishda faqat an’anaviy emas, balki talabalar qiziqishidan kelib chiqib, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari va xalq o‘yinlari elementlaridan keng foydalanish

Sport musobaqalarida faol ishtirok etgan va yuqori natija ko‘rsatgan talabalarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish (stipendiyalar, imtiyozlar) tizimini yanada takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni.
2. Kerimov F.A. "Sportda ilmiy tadqiqotlar". Toshkent, 2021-yil.
3. Sharipov Sh.S. "Talabalar sportini rivojlantirishning pedagogik muammolari" // Oliy ta’limda jismoniy tarbiya jurnali. 2024-y, №